


# Intellektual mulk agentligi

## salohiyat – ishonchli himoya – investitsion joziba

**Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq fan taraqqiyot va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga, intellektual mulk huquqi himoyasini ta'minlashga e'tibor qaratildi.**

Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 19-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasiga patent-litsenziya ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish huquqi berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-martdagi “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra Davlat patent idorasi Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o‘tkazildi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24- maydagi “O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan intellektual mulk sohasida bir-biridan mustaqil faoliyat yuritib kelgan Davlat patent idorasi hamda O‘zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish agentligi negizida Intellektual mulk agentligi tashkil etildi.

Intellektual mulk obyektlariga nisbatan ishonchli huquqiy muhofazani ta’minlash hamda samarali tizimni joriy qilish maqsadida 2019-yil 8-fevralda “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori asosida Intellektual mulk agentligi Adliya vazirligi tizimiga o‘tkazildi. Mazkur qaror sohani yanada takomillashtirish, tizimda shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash, samarali davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yaratish, intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga barham berishda muhim asos bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida agentlik intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilandi, sohada aniqlangan qonunbuzilishlar, ularning sabablarini bartaraf etish haqida taqdimnomalar kiritish, kadrlar siyosatini olib borish maqsadida Toshkent davlat yuridik universitetida “Intellektual mulk huquqi” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura yo‘nalishini ochish va Yuristlar malakasini oshirish markaziga intellektual mulk sohasidagi kadrlarning malakasini oshirish vazifasi belgilandi.

Bugungi kunda Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi intellektual mulk obyektlarini muhofazalash, kontrafakt mahsulotlarga qar-

shi kurash, intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish, intellektual mulk masalalari bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlikni olib borish va boshqa vazifalar bilan shug‘ullanadi.

Jahon tajribasida intellektual mulk obyekti ta’sirchan huquqiy tizim bilan himoya qilinganligi xorijiy investitsiyalar kirib kelishining asosiy omillaridan biri sanaladi. Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston intellektual mulkka oid bir qator universal xalqaro shartnomalarga, ya’ni 26 ta universal hujjatdan 15 tasiga qo‘shilgan. Navbatdagi qadam Tovar belgilari bo‘yicha qonunlar to‘g‘risidagi Singapur shartnomasi va Ijrochilar, fonogramma yaratuvchilar va eshittirishlar tayyorlovchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Rim xalqaro konvensiyasiga qo‘shilish juda muhim hisoblanadi.

Bu borada O‘zbekiston 1991-yildan buyon Jahon intellektual mulk tashkilotining a’zosidir. Jahon intellektual mulk tashkiloti bugungi kunda 180 dan ortiq davlatni o‘zida birlashtirgan xalqaro tashkilotdir.

Intellektual mulkning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati haqida to‘xtalsak, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish, bu sohadagi yutuqlarni yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotga aylantirishda intellektual mulkning ishonchli himoyasini ta’minlash juda muhim. Dunyoda tovarlarning brend qiymati yuqori hisoblanadi. Intellektual mulk Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45 foizini, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizni tashkil etadi.

Yurtimizda intellektual salohiyatning oshishini raqamlar orqali ifodalasak ham bo‘ladi. Xususan Intellektual mulk agentligiga 2018-yilda 8617 ta, 2019-yilda 10142 ta talabnoma kelib tushgan. Topshirilgan ishlarni tahlil etadigan bo‘lsak, ularning murakkabligi, jamiyatga naf keltirishi, analoglardan tubdan farq qilishi, izlanuvchilarning salohiyati ortib borayotganini ko‘rish mumkin.

**Mamlakatimizda yiliga 4 ming 500 atrofida intellektual mulk obyekti, jumladan, 2 mingdan ziyod tovar belgilari ro‘yxatdan o‘tadi. Misol uchun, Navoiy kon-metallurgiya kombinati so‘nggi o‘n yilda 35 ta ixtironi ro‘yxatdan o‘tkazib, ularning 16 tasidan 400 milliard so‘mdan ortiq iqtisodiy samara ko‘rgan. Bu ishlanmalarni boshqa davlatlarning oltin qazish korxonalariga sotish bo‘yicha muzokara olib borilmoqda.**

Agentlik tomonidan 2020-yili 400 ga yaqin ixtiro, 110 ta foydali model, 170 ta sanoat namunasi, 36 ta seleksiya yutug‘i ro‘yxatga olingan bo‘lsa-da, atigi 43 ta ilmiy ishlanma tijoratlashtirilgan xolos. Bu esa ilmiy yutuqlarning “elektron yarmarkasi”ni tashkil etish lozimligini ko‘rsatdi.

Shu kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim asos bo‘ldi. Xususan, 2021-yil 1-oktabrga qadar agentlik huzuridagi elektron “Patent platformasi”ni ishga tushirish belgilandi. Bu esa ilmiy tadqiqotchilar o‘z yaratmalarini platformaga joylashtirib, biznes vakillari bilan o‘ziga xos tijoriy maydon yaratishiga imkon beradi. Natijada ilm-fan va ishlab chiqarishni uzviy bog‘lagan holda klaster tuzish, zamon talablariga mos ishlanmalar yaratish yo‘lga qo‘yiladi.

Mahsulotlarni eksport qilishda mahalliy tovar belgilarini xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish masalasi muhim hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz sanoatidagi 72 ta tovar belgisi xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Ammo yurtimizning ichki imkoniyatlari bundan yuqori ekanligini inobatga olib bu raqamlarni oshirish lozim. Masalan, Chust pichog‘i, Samarqand noni, Marg‘ilon adrasi, Sherobod anori, Oltiariq va Parkent uzumi, Xorazm qovuni, Surxondaryo xurmosi kabi mashhur brendlarni hududiy mansubligi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazib, xalqaro bozorda faol targ‘ib qilish mumkin.

**Shunday nomoddiy aktivlar borki, ularning qiymati butun bir davlat yalpi ichki mahsuoti qiymatini tashkil qilishi mumkin. Misol uchun, AQShning “Amazon” onlayn-chakana savdo marketi ketma-ket uchinchi yil dunyodagi eng qimmat brendlar ro‘yxatida birinchi o‘rinni egallab, uning qiymati 220,8 milliard dollarni tashkil qilmoqda. Eng qimmat brendlar ro‘yxatidan “Google” (159,72 mlrd. dollar), “Apple” (140,52 mlrd. dollar), “Microsoft” (117,07 mlrd. dollar), “Samsung” (94,49 mlrd. dollar), “Walmart Inc.” (77,52 mlrd. dollar), “Mercedes-Benz” (65,04 mlrd. AQSh dollari) va boshqalar o‘rin olgan.**

Shu maqsaddan kelib chiqib, qarorga binoan 2025-yil 1-yanvarga qadar milliy eksport qiluvchilar tomonidan chet elda tovar kelib chiqqan joy nomlari (geografik ko‘rsatkichlar)ni ro‘yxatga olish bo‘yicha qilinadigan sarf-xarajatlari agentlik tomonidan qoplanishi, eksport ulushi umumiy tovar aylanmasining 60 foizidan ortig‘ini tashkil etadigan eksport qiluvchi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subektlari uchun tovar belgilarini 2021-2022-yillarda milliy ro‘yxatdan bepul o‘tkazish belgilandi.